

# **O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hindistonlik diplomat, ayni paytda Hindiston-Janubiy Koreya Do'stlik jamiyati raisi sifatida faoliyat olib borayotgan Skand Ranjal Tayal tashrif buyurdi**

✓ Tashrif davomida u institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashdi. Ushrashuvda rektor, mehmonni Davlatimiz rahbari tomonidan san'at va madaniyat sohalarining rivojiga qaratilayotgan e'tibor, sohada olib borilayotgan islohotlar, bugungi o'zbek san'atining yutuqlari hamda institut tarixi, faoliyati, xorijiy aloqalari, ilmiy-ijodiy sohalarda erishilayotgan yuqori natijalar bilan yaqindan tanishtirib o'tdi.

✓ Ta'kidlash o'rinniki, Skand Tayal janoblariga O'zbekiston va o'zbek madaniyati begona emas. Uzoq yillik diplomatik tajribaga ega bo'lgan mehmon 2005-2008-yillarda Hindistonning O'zbekistondagi elchisi sifatida faoliyat olib borgan.

✓ U Diplomatik faoliyati davomida 7 ta davlatda elchi sifatida ishlagan bo'lsa, uning uchun eng qadrlisi yurtimizdagi faoliyati bo'lganini ta'kidladi. Shuningdek, mamlakatimizda so'nggi sakkiz yilda amalga oshirilayotgan olamshumul o'zgarishlarni doimo katta qiziqish va mamnuniyat bilan kuzatib borayotganini qayd etib o'tdi.

✓ Shu bilan bir qatorda, institut faoliyati unda ijobiy taassurot qoldirgani, kelgusida Hindistonda san'at va madaniyatga ixtisoslashgan oliy ta'lif muassasasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'rtasida hamkorlik o'rnatilsa, bu aloqalar juda istiqbolli bo'lishini va bunday hamkorlik o'rnatilishi uchun ko'mak berishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

---

## **«Yoshlarni ekstremizm g'oyalaridan asrash – barqarorlik omili!”, “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiorlari ostida navbatdagi davra suhbati tashkil etildi.**

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish, shuningdek, ularni huquqbazarlik va firibgarliklarning qurboni bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

✓ Ayni shu maqsadda bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi magistratura tinglovchisi, podpolkovnik Eldor Raxmatov ishtirokida «Yoshlarni ekstremizm g'oyalaridan asrash – barqarorlik omili!”, “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiorlari ostida navbatdagi davra suhbati tashkil etildi.

✓ Dastlab mehmon Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashev

hamrohligida institutda olib borilayotgan o'quv jarayonlari, talabalarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi, professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar bilan suhbatlashdi.

Davra suhbatni avvalida yig'ilganlarga jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish yuzasidan viderolik namoyish etildi.

✓ Shundan so'ng Eldor Raxmatov mavzu yuzasidan taqdimot qildi hamda talaba -yoshlar tomonidan berilgan savollarga batafsil javob berdi.

---

## **Turkiyaning Ege universiteti bilan hamkorlikda xalqaro konferensiya o'tkazildi**

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev joriy yilning 27-28-sentabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida o'tkazilgan 0'zbekiston-Turkiya III ta'lrim forumi doirasida Turkiya Respublikasining Ege universiteti rektori, professor Nejdet Budak bilan uchrashib, o'zaro hamkorlik masalalarini muhokama qilgan edi. Uchrashuv so'ngida esa ikki tomonlama hamkorlikni ko'zda tutuvchi shartnoma imzolangan edi.  
([https://t.me/dsmi\\_uz/38283](https://t.me/dsmi_uz/38283))

✓ Ushbu kelishuvning amaliy ifodasi o'laroq 23-24-oktabr kunlari Turkiyaning Ege universiteti bilan hamkorlikda «Yangi media va kommunikatsiya» deb nomlangan xalqaro konferensiya tashkil etildi. Masofaviy tarzda o'tkazilgan xalqaro anjumanda 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, dotsent Baxtiyor

Yakubov, Axborot-texnologiyalari kafedrasи mudiri, dotsent Aziza Kurbanova, ushbu kafedra professor-o'qituvchilari hamda institutimiz doktorantlari o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

↳ Ma'lumot o'rнida, konferensiyada Ruminiya, Venгriya, Fillippin, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog'iston kabi davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan ham vakillar qatnashdi.

□ Ege universiteti Turkiyaning Izmir shahrida joylashgan bo'lib, 1955-yilda tashkil qilingan. Universitet dunyoning TOP-1000 universitetlari orasidan joy olgan oliy ta'lim mussasasi hisoblanadi.

---

**Otajon Dostonovning 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida operatorlik san'atining yangi tamoyillari (2000-2020-yillar)" mavzusidagi san'atshunoslik**

# **fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.**

□ Kunning ikkinchi yarmida Otajon Dostonovning 17.00.03 – Kino san'ati. Televide niye ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida operatorlik san'atining yangi tamoyillari (2000-2020-yillar)" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

Ushbu dissertatsiya ishi san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oltinoy Tojiboyeva ilmiy rahbarligida yozildi.

↗ Himoyada ushbu dissertatsiya ishi teleoperatorlik sohasida qilinayotgan kam sonli ilmiy tadqiqotlardan ekanligi, shu barobarda, amaliyot sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarining o'z sohalarida ilmiy ishga qo'l urayotgani quvonarli hodisa ekanligiga alohida urg'u qaratildi. Shuningdek, undan O'zbekiston badiiy filmlari bo'yicha olib boriladigan istiqboldagi tadqiqotlarda, darslik, o'quv qo'llanma va turli uslubiy ko'rsatmalar yaratishda foydalanish mumkinligi ta'kidlandi.

✓ Ushbu dissertatsiya ishi ham mufaqqiyatli himoya qilindi.

---

# **Dissertatsiya himoyalari bo'lib o'tdi.**

■■Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida navbatdagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning yig'ilishi o'tkazildi.

Unda dastlab Gavhar Nazarovaning 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston zamonaviy hujjatli kinosining rivojlanish tendensiyalari evolyutsiyasi" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

Ushbu dissertatsiya ishi san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat Tulyaxodjayeva ilmiy rahbarligida yozildi.

Tadqiqot o'zbek kinoshunoslik fanida ilmiy-nazariy ma'lumotlar ko'lamenti kengaytiradi, filmlar tahlili, kinohujjatchilar izlanishlari, hujjatli kino tarixi va nazariyasi fanlarini o'qitishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotdan kelajakda hujjatli kino tarixi va nazariyasini o'rganayotgan soha mutaxassislari, kino ijodkorlar va talaba-yoshlar muhim manba sifatida foydalanishi mumkin.

---

## **Ayni paytda yurtimizda**

# **“Madaniy meros haftaligi” tadbirlari o’tkazilmoqda.**

Ma'lumki, ayni paytda yurtimizda “Madaniy meros haftaligi” tadbirlari o’tkazilmoqda.

Bugun mazkur haftalik doirasida Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Yangi O’zbekistonda madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar” deb nomlangan xalqaro forum bo’lib o’tmoqda. Forumning tantanali ochilish marosimi Yoshlar ijod saroyida tashkil etildi.

Marosim yurtimizda madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida videolavha bilan boshlandi.

Tadbirni Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov kirish nutqi bilan ochib berib, “Yangi O’zbekistonda madaniyat va san’at sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar” to’g’risida taqdimot qildi.

Forumda xalqaro tashkilotlardan TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Turkiy madaniyat va meros jamg’armasi prezidenti Aktoti Raimkulova, shuningdek, Ozarbayjonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi, taniqli yozuvchi va publist O’g’uz Yunus Isahon o’g’li, TURKSOY Yozuvchilar uyushmasi raisi, qozoq shoiri, jurnalist va muharriri, Qozog’iston xalqining “Muras” tarixiy-madaniy merosi jamg’armasi raisi, taniqli tarixchi, publisist va jurnalist Moldokasimov Qiyos, Qozon davlat madaniyat instituti rektori Axmadiyeva Roza Shayxaydarovna, Ege universiteti Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti kafedrasi mudiri Fedekar Selami o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etmoqda.

Forum doirasida Nodirbek Sayfullayev Rossiya Federatsiyasining Qozon davlat madaniyat instituti rektori,

professor Roza Axmadiyeva bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda Nodirbek Sayfullayev, avvalo, mehmonni yurtimizda ko'rib turganidan mammun ekanligini bildirib, bugun O'zbekistonning jahon davlatlari bilan ochiqlik va oshkorlik tamoyillari asosida o'rnatilgan o'zaro manfaatli hamkorligi barcha sohalarni qamrab olganini ta'kidladi.

Jumladan, mamlakatimiz ta'lim, san'at va madaniyat sohasida ham bir qancha yirik tadbirlarga mezbonlik qilayotgani, bu tadbirlarda dunyoning sohaga oid nufuzli tashkilotlar rahbarlari ishtirok etib, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholayotgani va hamkorlik takliflarini bildirayotganini aytib o'tdi.

O'z navbatida, Roza Axmadiyeva yana bir bor yurtimizda bo'lib turganidan mammun ekanligini, bugun O'zbekiston tez suratlar bilan rivojlanib borayotgani, oxirgi tashrifidan so'ng o'tgan qisqa davrda ham ulkan yangilanishlar bo'layotganini mammuniyat bilan qayd etdi

Shuningdek, uchrashuvda ikki oliy ta'lim muassasining kelgusi hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish, avval erishilgan kelishuvlar doirasida bиргаликда amalga oshiriladigan ishlarni jadallashtirish hamda hamkorlik aloqalarini yangi darajaga olib chiqish masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori forumda mehmon bo'lib turgan TURKSOY tashkiloti Bosh kotibi Sulton Rayev hamda Turkiyaning Ege universiteti Turk tili va adabiyoti kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Fedekar Selami bilan uchrashib, fikr almashdi.

---

# **Joriy yilning 14-19-oktabr kunlari Turkiya davlatining Ege universitetida «Turk dunyosida matbuot» nomli simpozium bo'lib o'tdi.**

✓ Anjumanda O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Tatariston kabi davlatlar hamda Turkiyaning ko'plab nufuzli universitetlaridan tashrif buyurgan olimlarning turk matbuoti, jadidlarning matbuot sohasidagi faoliyatlari to'g'risidagi ma'ruzalari tinglandi.

✓ Simpoziumda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Baxtiyor Yakubov "Jadid matbuoti va teatr", «O'zbek va jahon filologiyasi» kafedrasi mudiri Zulfiya Ma'rufova "Jadid matbuoti va ayol", mazkur kafedra dotsenti Go'zalxon Isakova "Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy o'zlikni anglash borasidagi qarashlari" va ushbu kafedra katta o'qituvchisi Xumora Usmonova "Birinchi milliy gazetalar va ularning mazmuni" mavzusidagi ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

➤ Turkiy xalqlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan jadidlar faoliyatiga bag'ishlangan ushbu simpozium an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinmoqda. 2023-yilda Jadid nasri: roman va hikoya sipoziumi o'tkazilgan bo'lsa, joriy yilda Jadid matbuoti haqida atroflicha fikr yuritildi.

➤ Ma'lumki, jadid matbuoti o'zining ko'p qirraligi, jamiyatning barcha bo'g'inlarini qamrab olganligi bilan, taraqqiyoparvar qarashlarni ilgari surganligi bois, bugungi kun uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

✓ Institutimiz professor-o'qituvchilarining ma'ruzalar qatnashchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Anjuman yakunida barcha ishtirokchilar sertifikatlar bilan taqdirlanib, ma'ruzalar ilmiy to'plamdan joy olishi ta'kidlandi.

---

## **'quv teatrida ushbu bayram munosabati bilan "Ona tilim faxrim" deb nomlangan bayram dasturi tashkil etildi.**

21-oktabr 0'zbek tili bayrami kuni yurtimiz bo'ylab keng nishonlanmoqda. Bu kun yurtimizda o'zgacha shukuh bilan o'tkaziladigan aziz bayramlarimizdan biriga aylandi.

✓ Yurtimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 0'zbek tili bayrami kuni keng nishonlanmoqda.

Xususan, institutning 0'quv teatrida ushbu bayram munosabati bilan "Ona tilim faxrim" deb nomlangan bayram dasturi tashkil etildi.

✓ Tadbir avvalida filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev, pedagogika fanlari doktori, professor G'ofirjon Hamroyev, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, iste'dodli yozuvchi Javlon Jovliyev hamda 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, shoira Sayyora To'ychiyevalar so'zga chiqib, bugun o'zbek tilining mavqeyi kun kundan oshib, chet davlatlarda ham uni o'rganuvchilar soni oshib

borayotganini, shu bilan birga, tilimizning qadrini yanada yuksaltirish uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni ta'kidlab, barchani bayram bilan muborakbod etishdi.

Shundan so'ng tadbir milliy tilimizni, chin insoniy tuyg'ularni tarannum etuvchi milliy va zamonaviy kuy-qo'shiq va raqlar bilan davom ettirildi.